

International research journal

PEDAGOGS

MARCH 2022

VOLUME 6, ISSUE 1



ISSN:2181-3027

PEDAGOGLAR.UZ
Scientific Research Center

PEDAGOGS

legal, medical, social, scientific journal

IN ALL AREAS

Volume-6, Issue-1, March–2022



**ICI JOURNALS
MASTER LIST**

TAHRIRIYAT | EDITORIAL

Editor in chief

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

Executive Secretary

Abdurahmonov Boburjon

*He is mathematic teacher at
Uzbekistan District 49 Secondary School*

Preparing for publishing

Xoliqov Toxirjon Shavkatjon ugli

Bosh muharrir

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

Mas'ul kotib

Abdurahmonov Boburjon

*O'zbekiston tumani 49-umumiy o'rta
ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi*

Nashrga tayyorlovchi

Xoliqov Toxirjon Shavkatjon o'g'li

TAHRIRIYAT KENGASH A'ZOLARI | EDITORIAL BOARD MEMBERS

Inobatxot Mirzaraximova

Rishton tuman XTB mudiri

Umida Barzieva

Farg'ona viloyat xalq ta'limi boshqarma metodisti

O'rionov Ahmadjon Qo'shaqovich

Farg'ona Davlat Universiteti, Matematika fanlari doktori, professor

Toshboltayev Muhammadjon

Toshkent mashinasozlik institute, Texnika fanlari doktori, Professor

Qodirov Nabijon O'lmasovich

O'zbekiston xalq ustasi, (usta kulol)

Turdiyev Azizbek Anvarovich

O'zbekiston madaniyat va san'at vazirligi, journalist

Ne'madaliyev A'zam Muhammadjonovich

Cyberlayn firmasi asoschisi, iqtisod fanlari nomzodi, PhD

Mohinur Saidova

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sharifaxon Xakimova

Farg'ona tumani 4-maktab matematika fani o'qituvchisi

TAHRIRIYAT MANZILI | EDITORIAL ADDRESS

UZB: 712000. Farg'ona viloyati, Rishton shahri, Istirohat bog'i ko'chasi 24-uy
www.pedagoglar.uz, E-mail: info@pedagoglar.uz Tel: +998 90 905-14-30

ENG: 712000. Fergana region, Rishtan city, Park park street 24
www.pedagoglar.uz, E-mail: info@pedagoglar.uz Tel: +998 90 905-14-30

**KONFLIKTLI VAZIYATLARDA NIZOLASHUVCHAN SHAXS
TOIFALARI**

Jamoldinova Sayyora Nodirbek qizi

CHDPI “Pedagogika va menejment” kafedrasи o’qituvchisi.

Sunnatillayeva Malika Sag’dulla qizi, Qarshiboyeva Sevinch Bahodir qizi

CHDPI Pedagogika fa’kulteti “Maktab menejmenti”

yo’nalishi 1-bosqich talabalari

Tayanch so’zlar: Konflikt, namoyishkorona tip, rigid tip, boshqarib bo’lmaydigan toifa, aniqlikni talab etadigan toifa, nizosiz toifa, maqsadga yo’naltirilgan toifa, xadikli - qo’rqaq toifa, siklotimik toifa, gipperfaol toifa, emotsional toifa, o’ta ta’sirchan toifa, konform, moslashuvchan toifa, tikilib qoladigan toifa, qo’zg’aluvchan toifa.

Ключевые слова: Конфликтность, демонстративный тип, ригидный тип, неуправляемый тип, категория требовательности к точности, категория бесконфликтности, категория целеустремленность, категория хади-трус, категория циклотимия, категория гиперактивность, категория эмоциональная, впечатлительный тип, конформный, гибкий. тип, сшитый тип, движущийся тип.

Keywords: Conflict, demonstrative type, rigid type, uncontrollable type, precision-demanding category, conflict-free category, goal-oriented category, khadi-coward category, cyclothymic category, hyperactive category, emotional category, o ‘impressive category, conform, flexible category, stitched category, moving category.

Hozirgi zamon ilm-fani bashariyat tarixining qaysi bir davriga murojaat qilmasin, ularning barchasida konfliktlarning mavjud ekanligiga duch keladi. Aniqroq, qilib aytganda, konflikt jamiyat rivojining doimiy hamrohi bo’lganligiga

amin bo‘lamiz. Konfliktlarning jamiyat hayotidagi o‘rni qadimdan e’tiborga molik bo‘lib kelgan. Ha, insoniyat konfliktlar bilan “bilag‘on odam”lar yashagan davrdan buyon xamnafasdir. Shuning uchun bo‘lsa kerak ilmiy doiralarga konflikt haqidagi ilk qarashlar affsonalar orqali kirib kelgan. Konflikt bu demak “nizo”, “to’qnashuv”, “kelishmovchilik”, “ziddiyat” kabi tushunchalar bilan ham ta’riflasak bo’ladi. Konfliktlar turli xil yo’nalishlarda bo’lishi mumkin. Konfliktlar ikki yoki bir nechta shaxslar o’rtasida yoki jamoalar o’rtasida bo’lishi mumkin. Nizolarni kelib chiqishida har bir nizolashuvchan shaxslarning individual-psixologik xususiyatlariga ham bo’g’liq.

A.Menyayev “Ta’lim va tarbiyadagi konfliktlar” maqolasida kattalar konfliktlarining uchta obyektiv sababini belgilaydi:

1. Kattalar konservativizmi va bolalarning yangi madaniy qadriyatlarning o‘zaro ta’siri; Bunda qadimdagи tarbiya ijtimoiy muhitning kata ta’siri shu davrlardsagi ota-bobolarimizni o’z dunyoqarashlari bilan hozirgi zamon yoshlarini dunyoqarashlaridagi o‘zaro tafovutlar, bir-biriga to’g’ri kelmasligi va uning natijasida turli nizoli vaziyatlarni vujudga kelishiga sabab bo’ladi.

2. Kattalarning madaniy saviyasining yetarli emasligi (qo‘pollik, beozorlik va boshqalar), uning xalq madaniyati darajasiga mos kelmasligi; Yoshi kata qariyalarimizning hozirgi kun tehnologiyalarini hamda hozirgi kun ijtimoiy madaniyatni tushunmasliklari ham hozirgi kunda turli xil nizolarga sabab bo’ladi. Qadimda madaniyat maorif ham hozirgi zamon madaniyat va ta’lim-tarbiya jarayonlari o’rtasida farqli jihatlarning mavjudligi hozirgi kunda yoshi kata ota-onalarimizning o’z farzandlari oralarida bir-birlarini tushunmasliklari va ular o’rtasida nizoli vaziyatlarni vujudga keltiradi.

3. Bola xulq-atvorini tizimli boshqarishda tajriba to‘plash jarayonida o‘qituvchilar yoki ota-onalar psixikasidagi o‘zgarishlar; bu o‘zgarishlarni majoziy ma’noda “hokimiyat tomonidan buzilish” – doimiy man qilish, buyruq berish, tuzatish, majburlash, qoralash, tanbeh berish, bir so‘z bilan aytganda, qattiqqo‘llik, itoatkorlik va intizomga “tarbiyalash” odati deyish mumkin. Bu o‘zgarishlarni ham

o’z-o’zidan tehnikaning yanada jadallahib ketishi yoki atrof-muhitni zaharli moddalar orqali tabiatni zararlanishini ham misol qilib olsak bo’ladi . Bularning hammasi jamiyat a’zolariga yetarlicha o’z ta’sirini o’tkazadi. Hozirgi kundagi tehnologiyalarni rivojlanib ketishi, ommaviy madaniyatimizning chet el davlatlariga taqlid qilib yurishimiz , turishimiz, muloqot qilishimiz, o’zimizni tutishimiz, madaniyatimizds, tarbiyamizda yaqqol ko’rishimiz mumkin. Buning natijasida oilalarda ota-onalar o’rtasida, ota-onsa va farzandlar o’rtasida konfliktlarni keltirib chiqaradi. Oilalarda notinchliklarni keltirib chiqaradi, oila esa jamiyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Konfliktli vaziyatlarda har bir inson turlicha qabul qiladi va unga turli xil yondashadi. Nizoli vaziyatlarda kimdir har doimgidek qabul qiladi, ya’ni ularning kayfiyatlariga umuman nizo o’z ta’sirini o’tkaza olmaydi. Kimdir nizoli vaziyatlarda o’zini boshqara olmaydi va natijada o’ziga va o’z yaqinlariga turli xil ziyon yetkazib qo’yishi mumkin. Quyida konfliktli vaziyatlarda turli xil shaxslarni o’zini tutishini bir nechta tiplarga ajratimiz:

Namoyishkorona toifadagi nizoli shaxs xislatlari: diqqat markazda bo’lishni istaydi; boshqalar ko’z oldida yaxshi ko’rinishni xoxlaydi; uning boshqalarga bo’lgan munosabati, odamlarning unga bo’lgan munosabatidan kelib chiqadi; osongina yuzaki nizolarga berila oladi; turli vaziyatlarga osongina moslashadi; emotsional jixatdan faol bo’lib, aqlan ish ko’rmaydi; vaziyatga qarab ishini tashkil etadi va xar doim ham amal qilmaydi; sistemali, og’ir ishlardan o’zini olib qochadi; nizolardan chekinmaydi, janjalli vaziyatlarda o’zini yomon his etmaydi; ko’pincha nizolarga sababchi bo’ladi, lekin o’zini unday hisoblamaydi. Bunday toifadagi shaxslar har qanday vaziyatlarda o’zini his-tuyg’ularini bemalol qanday bo’lsa shundayligicha namoyish qiladi. O’zining emotsional xususiyatlarini ham omma oldida har qanday vaziyatlarda namoyish qila oladi, buning natijasida ba’zi bir insonlarga bunday holatlar yoqmasligi mumkin. Bu toifadagi shaxslar konfliktlarni keltirib chiqaradi lekin bu nizolarda o’zini sababchi etrib tan olmaydi.

Rigid (ing. so'zdan olingan bo'lib, qattiq degan ma'noni ang.) toifadagi nizoli shaxs xislatlari: shubxaga beriluvchan; o'zini baxolashi o'ta yuqori; doimo shaxsan tan olinishini talab etadi; vaziyat o'zgarishi va sharoitlarni inobatga olmaydi; to'g'ri va tushunmaydigan, ya'ni moslashmaydigan; qiyinchilik bilan atrofidagilarning fikriga kiradi, boshqalarning fikriga u qadar qo'shilmaydi; boshqalar tomonidan unga e'tibor ko'rsatilishini majburiyatdek ko'radi; boshqalar tomonidan kelishmaslik yoki qo'shilmaslikni xafagarchilik bilan qabul qiladi; o'zi xdrakatlariga nisbatan tanqidiy kdramaydi; nixoyatda arazchi, xaqiqiy yoki arzimas noxaqlklarga xam ta'sirchanlikni namoyon etadi.

Boshqarib bo'lmaydigan toifadagi nizoli shaxs xislatlari: o'zini yetarli darajada nazorat kilolmaydi; xulqini aniq, aytib bo'lmaydi; o'zini agressiv va nixoyatda zardalik bilan ko'rsatadi; aksariyat xollarda umumqabul etilgan ijtimoiy normalarga rioya etmaydi; yuqori darajada o'zini baxolash xususiyatiga ega; o'z shaxsini ta'kidlanishini kutadi; omadsizliklar va xatolarda boshqalarni ayplashga moyil; o'z faoliyatini rejali tashkil eta olmaydi yoki rejalarini xayotga ketma-ketlik bilan joriy eta olmaydi; o'z maqsadi va sharoitlarini moslashtira olish qobiliyati yetarli rivojlanmagan; o'tgan tajribadan kelajak uchun saboq chiqarmaydi.

Aniqlikni talab etadigan toifadagi nizoli shaxs xislatlari: ishga nixoyatda jiddiy yondashadi; o'ziga nixoyatda yuqori talab qo'yadi; atrofidagilarga yuqori talablar qo'yadiki, bu ularga nisbatan go'yoki ta'kiddek tuyuladi; yuqori darajada xavotirlanish xislatiga ega; xamma narsaga nixoyatda e'tiborli; atrofidagilarning tanqidiy fikriga katta ahamiyat beradi; goxida do'stlari, tanishlari bilan munosabatlarni uzadiki, bu go'yoki uni xafa qilganlari oqibatidek tuyuladi; goxida o'zi-'zidan aziyat chekadi, xatolaridan qayg'uradi, xatto goxida bu xatolarga nisbatan bosh og'rikli, uyqusizlik sifatida javob qaytaradi; tashqi jixatdan xissiyotlarini oshkora etmaslikni ma'qul biladi; guruxdag'i real o'zaro munosabatlarni yaxshi xis etmaydi.

Nizosiz toifadagi nizoli shaxs xislatlari: fikrlari va qarashlarida beqarorlik mavjud; yengil ishonish xislatiga ega; ichki qarama-qarshi fikrlarga ega;

xarakatlarida bir qadar uygunlik yo'q; vaziyatlarda bir laxzalik yutuqlarga tayanadi; kelajakni, istiqbolni yetarli darajada ko'ra olmaydi; liderlarning va atrofidagilarning fikriga tobe; murosaga kelishga intiladi; yetarli darajada irodaga ega emas; o'z xattixarakatlari oqibatlarini va boshqalarning xarakatlari sabablarini chuqur o'ylamaydi.

Maqsadga yo'naltirilgan toifadagi nizoli shaxs xislatlari: nizoli vaqtida o'z maqsadlariga yetishish uchun omil sifatida qaraydi; nizolarni xal etishda faol tomon sifatida o'zini namoyon etadi; o'zaro munosabatlarda ta'sir ko'rsatishga moyil; nizolarda maqsadli harakat qiladi. tomonlarning holatini baxolay oladi, turli holatlarni hisoblaydi; janjalli vaziyatlarda muomalaning samarali ta'sir etish usullarini qo'llay oladi. Nizo yechimini topish murakkab, uzoq muddatli, sabr va qanoatni talab etadigan, tomonlarning o'z ustida uzoq muddat ishlashini zaruriyatga aylantiradigan jarayondir. Nizo yechimini topish - tomonlarning bir-birini anglashi va tushunishiga qaratilgan yo'ldir.

Xadikli-qo'rkoq toifa. Bunday odamlar orasida muntazam ravishda sotsial muxit tomonidan xavf paydo bo'lishi ehtimolini o'ta yuqori baholaydigan individlar uchrab, ular ortiqcha sotsial kechinmalar, qo'rquv va hadiksirashga moyil bo'ladilar. Konfliktlarga kamdan-kam hollarda kirishib, ularda passiv ro'l o'ynaydilar.

Siklotimik toifa. Bu toifadagi shaxslar kayfiyatning siklli ravishda bir ko'tarilib, bir tushib turishi xos bo'lib, bu ularni charchatib, ular axloqini esa oldindan bilib bo'lmaydigan, ziddiyatli vaziyatlarga xos ko'rinishga keltiradi. Bunday toifadagi insonlar harakterlari ham o'zgaruvchan bo'lib, ularning asli tepmeramentlarini ham ilg'ash qiyin bo'ladi. Chunki ularning kayfiyatlari ham vaziyatga qarab o'zgarib turadi. Bunday insonlar bilan nizoli vaziyatlar keltirib chiqarishlari kamdan-kam holatlarda uchratishimiz mumkin, chunki ular mazkur vaziyatga o'zini shu muhitga moslay oladi.

Giperfaol toifa. Xavotirli kechinmalar va baxt tuyg'usini o'ziga xos va o'ta kuchli kechirishi, kayfiyatining tez-tez o'zgarib turishi, turli hodisalarini ehtirosli qabul qilishi bilan ajralib turadi. Bu toifa vakillari o'ta serg'ayrat, mustaqil bo'lib,

yetakchilik va avantyuralarga intiladilar, ammo ular mas'uliyatiga, zimmasiga yuklatilgan vazifalarga e'tiborsiz munosabatda bo'lishga moyildirlar. Bu toifadagi shaxslar ta'sirchan bo'lib, emotsiyaga boy va har qanday vaziyatga ozining histuyg'ulari orqali javob beradi.

Emotsional toifa. Bunday odamlar sezgir, ta'sirchan bo'ladilar. Kayfiyati o'ta chuqurligi, kechinma va xis-tuyg'ularining o'ta nozikligi bilan farqlanib, ijtimoiy manfaatlari jamoatchilik hayotini ruhiy, ma'naviy jixatlariga katta e'tibor berishida namoyon bo'ladi.

O'ta ta'sirchan toifa. Bu toifa vakillariga o'zgaruvchan kayfiyat, suzamollik (ezmalik), tashqi hodisalarga ortiqcha chalg'ish, shuningdek, al'trugom (xojatbarorlik), birovlar g'amiga sherik bo'lish, yuksak badiiy did, artistlik maxorati, o'ta ta'sirchanlik, tez-tez tushkunlikka tushish hosdir. Bu toifadagi shaxslar ma'lum bir jamoadagi o'z sheriklarining muammolariga beriluvchan, ularning muammolarini hal qilishga yordamlashadigan ularning dardlari bilan ancha muddatgacha hayolan o'ylab yuradilar.

Konform, moslashuvchan toifa. Bu toifaga oid shaxslar dilkash, kirishuvchan, gapdon, xdtto ezma bo'ladilar. Ular o'z fikriga ega emas va mustaqil bo'lmaydilar. Bunday odamlar tartibsiz bo'lib, bo'ysunishni ma'qul ko'radir, do'stlari bilan muloqotda va oilada yetakchilikni boshqalarga beradilar.

"Tikilib qoladigan" toifa. Bu toifadagi odamlar uchun kuchli emotsiyal kechinmalarning juda barqarorligi va o'ta qimmatli g'oyalarni shakllantirish, o'ziga ortiqcha baxo berish kabilar xosdir. Ular xafagarchiliklarni unuta olmaydilar va o'z "dilozorlari" bilan "orani ochib" olishga intiladilar, ishda va oilada ular bilan til topishish ancha qiyin, turli fitnalarga moyillik xam kuzatiladi. Konfliktda ular ko'pincha faol taraf bo'lib, o'zлari uchun do'st va dushmanlar doirasini aniq belgilab oladilar. Xamsuxbatlariga ularning xar qanday ishda yuksak natijalarga erishishga intilishi, o'ziga nisbatan yuqori talablar qo'yishi va ularni namoyon eta olishi,adolat xissi, prinsipiallilik, doimiy, barqaror qarashlari yoqadi. Bu kabi shaxslarda

atrofdagi odamlarga yoqmaydigan xislatlar xam anchagina: tez xafa bo'lish, shubxalilik, kek saklash, rashkchilik, izzat talablik kabi xolatlar kuzatiladi.

Qo'z'aluvchan toifa. Bu toifadagi odamlarga xos xususiyatlar - xaddan tashqari ijtimoiy ta'sirchanlik, o'z extiroslari, xarakatlari va intilishlarini boshqara olmaslik bo'lib, bular oxir-oqibatda ziddiyatlar va boshqalar bilan bo'ladigan muloqotdagi muammolarni keltirib chiqaradi.

Yuqoridagi toifa tiplaridagi shaxslarda konfliktli vaziyatlarda turli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Ba'zi holatlarda konflikt kuchayib kattalashib ketishi mumkin, ba'zi holatlarda konfliklarni pasayishiga olib kelishi mumkin. Demak, Konfliktlarda nizolashuvchan shaxslar o'zlarining xususiyatlaridan kelib chiqib turlicha qabul qiladi va konfliktlarga turlicha yondashib o'z harakatlarini namoyish etadilar.

Adabiyotlar:

1. A.S. Kozlov "Protsedurnaya pomoshch v razreshenii konfliktov". Jurnal "Prikladnaya psihologiya", № 4. Moskva - 1998g.
2. O.N. Lukashonok, N.E. Щуркова "Konfliktologicheskiy etod dlya uchitelya". Moskva - 1998g. (80s.)
3. D. Skott "Konfliktы. Puti ih preodoleniya". Kiev - 1991g.
4. V.A. Sonin "Slovarь personaliy. Psihologi ot A do YA". Moskva: moskovskiy psihologo-sotsialnyy institut - 1997. -160 s.
5. V.P. SHeynov "Konfliktы v nashey jizni i ih razreshenie". Minsk - 1997g